

2/2022,
mart-aprel
(№ 00058)



AGRAR SOHADA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Qurbonov Alisher Boboqulovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti. O'zbekiston. qurbonov7721@mail.ru

Maxmutullayeva Sevinch Xabibulla qizi

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Logistika 163-21 gurux talabasi. O'zbekiston. xamrayevasayyora@gmail.com

Article DOI: 10.55439/EIT/vol10_iss2/a31

Annotatsiya

Maqolada qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari va unda tadbirkorlikning o'рни asoslangan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi tadbirkorligi sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari urganilgan va tahlil etilgan. O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligida mavjud muammolari va istiqbollari keltirilgan. Qishloq xo'jaligi sohasida mutaxassislarining yetishmovchiligi va tadbirkorlikdagi mavjud muammolarning yechimi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik, agrotadbirkorlik, texnologiya, smaradorlik, mahsulot sifati.

Аннотация

В статье изложена роль предпринимательства в специфике сельского хозяйства. Также были изучены и проанализированы мнения ученых, проводящих исследования в области аграрного предпринимательства. Представлены современные проблемы и перспективы сельского хозяйства Республики Узбекистан. Высказаны предложения и рекомендации по нехватке специалистов в области сельского хозяйства и решение проблем существующих в сфере предпринимательства.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, предпринимательство, агробизнес, технология, эффективность, качество продукции.

Abstract

The article is based on the specifics of agriculture and the role of entrepreneurship in it. The opinions of scientists conducting research in the field of agricultural entrepreneurship were also studied and analyzed. Modern problems and prospects of agriculture of the Republic of Uzbekistan are presented. Suggestions and recommendations were made on the lack of specialists in the field of agriculture and the solution of existing problems in the field of entrepreneurship.

Key words: Agriculture, entrepreneurship, agribusiness, technology, efficiency, product quality.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida uning mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlab chiqaruvchi kichik

tadbirkorlikning rivojlanishi bozor islohotlarini amalga oshirish bilan hamohang rivojlanmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida tadbirkorlik shakllari aholini ish bilan bandligini ta'minlashning rivojlanib borishida hal etuvchi rol o'ynaydi. Tadbirkorlikdagi xususiy tashabbuskorlik, omilkorlik hozirgi zamon iqtisodiy jarayonida harakatlantiruvchi kuchdir. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirib borish har qanday bozor islohotining bosh yo'nalishlaridan biridir. Tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati va ahamiyatli jihatlaridan biri uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining doimiy ravishda o'sib borishidir. O'zbekiston respublikasida 2000 yil 31 foiz 2021 yilga kelib 54,2 foizi va iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 82 foizidan ko'prog'i ularning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va iqtisodiyotda band bo'lgan aholining kichik tadbirkorlik sube'ktlaridagi ulushining Respublika va viloyat ko'rsatkichlari 1,5-2,0 foizga farq qilgan holda rivojlanmoqda.

Hozirgi zamon ijtimoiy hayotida unga amaliy ehtiyoj sezmaydigan birorta xo'jalik faoliyati topilmaydi. Tadbirkorlik har qaysi mamlakatda va uning ayrim hududlaridagi aniq demografik va iqtisodiy holatlarni hisobga olgan holda rivojlanadi, tadbirkorlik yo'nalishining rivojlanishi esa aniq holatdagi mamlakatimiz iqtisodiyotning amaliy vazifalari bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 - son Farmonida keltirilgan maqsadlaridan biri tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish.

Ayiniqsa agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakatimizning muhim vazifalaridan biridir. Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng muhim sohalardan biridir. Aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi barcha kishilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan birga, ularni ish bilan band qiladi. Buni amalga oshirish tadbirkorlik va qishloq xo'jaligi sohasi bilan birgalikdagi faoliyatiga bog'liq. Ushbu hamkorlik iqtisodiyotning barqarorlashuvi hamda global iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Global iqtisodiy rivojlanishda tadbirkorlik qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari va bu bilan bog'liq xavflar tufayli bir qator muammolar, qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladi. Shu bois qishloq xo'jaligida yuqori samarali, raqobatbardosh tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish zarur.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Tadbirkorlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar va amaliyotchilar o'rtasida ushbu masalaga yondashishda turli qarashlar, unda ma'lum bir qarama-qarshiliklar mavjud. Ko'pchilik korxonalar rahbarlari va yirik aksionerlik jamiyatlarining menejerlari o'zlarini tadbirkor deb hisoblaydilar, vaholanki, ularning faoliyati ma'lum darajada ishlab chiqarish vositalari egalari tomonidan nazorat qilinadi. Ko'pchilik, tadbirkorlik faoliyati to'laligicha kichik biznes doirasida, o'z korxonasining egasi va menejeri bo'lgan tadbirkor tomonidan amalga oshiriladi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, «tadbirkor – bu o'z ishining manfaati yo'lida mustaqil faoliyat yurituvchi boshqaruvchi» [7] degan fikrlar ham mavjud. «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonunda tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: «Tadbirkorlik – mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal

qilib va mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir».

Tadbirkorlikning mohiyatini, uning harakat va imkoniyatlari doirasini yaxshiroq tushunib olish uchun, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi rolga bo'lgan qarashlar tizimi rivojini tashkiliy, siyosiy – iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jihatlar nuqtai – nazaridan umumlashgan holda tahlil qilamiz.

O'zbek olimlaridan A.O'lmasov va N.To'xliyevlarning tadbirkorlikni «daromad keltiradigan yoki naf beradigan xo'jalik faoliyati (kasb-kor, mashg'ulot) sohibkorlik - tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish» [8], «...tadbirkorlik-pul topish maqsadida mas'uliyatni zimmaga olgan holda biron iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish» [8], deb ta'riflashgan. Ushbu ikki ta'rif bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ularning bir-birlaridan farqlanishini ko'rsatib berolmaydi. Shu asosda, shunday fikrga kelish mumkinki, A.O'lmasov ushbu ikki tushuncha mazmuniga o'z qarashlarini rivojlantirib, biznes tushunchasiga ancha to'laroq ta'rif beradi. Masalan, u «Biznes keng ma'nodagi qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir», «tadbirkorlik-kishilar (mulkchilik sub'ektlari)ning moddiy va pul mablag'larini (kapitalni) amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat, deb qaraydi. Tadbirkorlik, umuman, pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi», deb ta'riflaydi [8].

Shunday qilib, biz shunday fikrga kelishimiz mumkinki, daromad topishga qaratilgan har qanday faoliyatni ham biznes tushunchasi bilan ifodalash mumkin emas. Biznes foyda olishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, mulkiy mas'uliyat va javobgarlikka, iqtisodiy tahlikaga asoslanadi. Bu esa biznes bilan shug'ullanuvchi faoliyatda xonavayron bo'lish, bozori kasod bo'lish xavfi mavjudligini, agar bu hol yuz bersa, u holda mulkidan ayrilishi mumkinligini anglatadi. Shuning uchun, biznes tushunchasi daromad, foyda, naf olish maqsadida mulkiy javobgarlikka, iqtisodiy tahlikaga asoslangan faoliyatni anglatadi. Tadbirkorlik biznesning bir turi bo'lib, foyda olish maqsadidagi yaratuvchanlik, ya'ni tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatidir. Biznes o'z ichiga tadbirkorlikni, iste'mol biznesini va boylikdan boylik undirish biznesini, yaratuvchilik bilan bilan bog'liq bo'lmagan kasbkorlik biznesini oladi.

Kichik tadbirkorlik erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatish jarayonida tashkil etilish shakli va turlarini o'zgartirib boradi hamda o'z imkoniyati va tashqi muhit ta'sirida faoliyat turlarini o'zgartirishi, bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi va ilmiy uslubiy asoslari

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda kichik biznes rivojining nazariy-uslubiy asoslari, agrar sohada kichik biznes rivoji, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga tayangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi hissasi va ish bilan bandlikni ta'minlash darajasining o'sib borishi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy korxonalarining afzalligi, mamlakat barqarorligini ta'minlashdagi o'zni va ahamiyatini oshib borayotganini ko'rsatadi. Jumladan, jaxon mamlakatlarida aholinng katta qismi kichik

biznes sohasida faoliyat ko‘rsatadi. Jumladan, Xitoyda 80%, Yaponiyada 48%, AQShda 50% aholi, O‘zbekistonda esa 78 foiz aholi kichik tadbirkorlik sohasida band. Jaxon mamlakatlarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi ham yuqori darajada, jumladan, Xitoyda 60%, Italiyada 68%, Germaniyada 53%, Koriyada 48%, AQShda 50%, Rossiyada 21% ni, O‘zbekistonda esa 56 foizni tashkil qiladi. Xar bir 1000 aholiga tug‘ri keladigan tadbirkorlik sub’ektlari Yevropa ittifoqida 57 birlikni, AQShda 90 birlikni, Rossiyada 27.2 birlikni [9], O‘zbekistonda esa 22 birlikni tashkil qiladi.

Statistik ko‘rsatkichlariga ko‘ra rivojlangan, iqtisodiy barqaror mamlakatlarda kichik biznes va xususiy korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining mamlakatlar o‘rtasidagi farqi 5-10 foizni tashkil qilib, O‘zbekistonda esa ushbu ko‘rsatkich 15-17 foiz farq qilishini ko‘rishimiz mumkin. Respublikada hamda viloyatlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari yalpi ichki mahsulotdagi ulushlarining tebranish doirasi past emas. O‘zbekiston respublikasida yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligining ulushi kam bo‘lsa-da, ammo aholining 55 foizi qishloq joylarda yashaydi. Shu bois qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyati mazmunini cho‘qurlashtirish va takomillashtirish zarur.

1-jadval

O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Ko‘rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2021	2021 yilda 2000 yilga nisbatan o‘zgarish, punkt
Qishloq xo‘jalik ekinlari maydoni, ming gektar	3778,3	3647,5	3708,4	3694,2	3260,7	0,9
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, mlrd. so‘m	1387,2	5978,3	30856,7	99604,6	302524,9	218,1
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi, mlrd.so‘m	1021	5019,7	29900,4	98198	299280	293,1
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi,%	73,6	84,0	96,9	98,6	98,9	1,3
Har ming gektar yerga tug‘ri keladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari, mlrd. so‘m	0,4	1,6	8,3	27,0	92,8	252,7

O‘zbekiston Respublikasida 3260,7 ming gektar ekin maydoni mavjud bo‘lib, 2000 yilga nisbatan 10 foizga kamaygan. Ammo qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 2021 yilda 302524,9 milliard so‘mni tashkil qilib, 2000 yilga nisbatan 218,1 punktga oshgan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 98,2 foizni tashkil qilib, unda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 299280,0 milliard so‘mni tashkil qilgan. Qishloq xo‘jalik korxonalarini har ming gektardan 92,8 milliard so‘mni tashkil qilib, 2000 yilga nisbatan 252,2 punktga oshgan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshib boryotgan bo‘lsada, mulkchilik shakllariing o‘zgarishi qishloq

aholisining ishsizlik darajasi oshib bormoqda. Keyingi yillarda qishloq xo'jalik sohasi mutaxassislarida tadbirkorlik qobiliyatining shakllanmaganligi oqibatida, boshqa tarmoqlardan tadbirkorlar kirib kelishi kuchaydi. Yillar davomida ushbu soha mutaxassislarining kamayib borishi qishloq xo'jaligi tadbirkorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

A.N.Asaul [1] fikricha, tadbirkorlik- bu iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos turi bo'lib, uning mohiyati bozor almashinuvi orqali o'z a'zolarining o'ziga xos ehtiyojlariga bo'lgan jamiyat talabini rag'batlantirish va qondir ishdan iborat bo'lib, bozor muvozanati buzilishi orqali raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lishga qaratilgan. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik ma'lum bir sub'ektlar va tadbirkorlik faoliyatining ob'ektlari ishtirokini o'z ichiga oladi. I.V. Ukrainsevaning so'zlariga ko'ra[2], xo'jalik yurituvchi sub'ektlar – bu xo'jalik faoliyatini olib boradigan va to'liq javobgarlikni o'z zimmlariga oladigan tadbirkorlarning o'zlari.

Rossiyaning "Bosh direktor" jurnali [9] ikkita asosiy global muammo yo'nalishini etirof etadi:

➤ oziq-ovqatga muhtoj kishilarning darajasi va agrar munosabatlarning qoloqligi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi va oziq- ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi. Shu bois ko'pchilik ochlikdan aziyat chekmoqda. Zero, ishlab chiqarish hajmi o'sib borsa-da, och odamlar soni hali ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Birlashgan millatlar tashkilotining aholishunoslik jamg'armasi ma'lumotiga ko'ra 2021 yil 1 yanvardagi ma'lumotiga ko'ra¹ hozirgi paytda dunyodagi nochorlar soni taxminan 1181,25 million kishini tashkil etadi, bu umumiy aholining taxminan 15 foizini tashkil qiladi. Dunyo aholisining 60 foizi Osiyo mamalakatlariga tug'ri kelishinini hisobga olsak, ushbu mamlakatlarda birlamchi ehtiyojlarni qondira olmaydigan aholi soni ko'pligini anglatadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda yashash minumimidan kam daromad ega kambag'allar, jumladan, Rossiyada 17,6 mln.(12.1%),². Yevropa ittifoqida kambag'allar soni 85 mln.(17%) kishi, Amerika Qo'shma shtatlarida 40 mln. kishini tashkil qiladi³. Shu nuqtai nazardan, bu muammo birinchi va eng muhim hisoblanadi.

➤ Ikkinchi dunyo muammosi agrar munosabatlar bilan bog'liq. U turli mamlakatlarda qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi farq tufayli paydo bo'lgan. Ba'zi mamlakatlarda yangi yuqori samarali texnologiyalar va o'sish usullarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi sohasi yuqori darajada. Ammo ayrim mamlakatlarda o'tmish qoldiqlaridan kelib chiqqan holda bozor munosabatlariga mos mulkchilik shakllari va munosabatlari tug'ri yo'lga quyilmagan. Ushbu bo'shliq mamlakatlar o'rtasidagi qishloq xo'jaligi munosabatlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu holat O'zbekiston respublikasiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini bir necha asosiy vazifalarni bajarib kelmoqda. Yangi ish joylarini tashkil etib, iqtisodiyotdagi kerakli tarkibiy o'zgarishlarining ijtimoiy xarajatlarini tenglashtirib kelmoqda. O'zbekistonda ham bozor iqtisodiyotining amal qilish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va bu borada xorijiy davlatlar tajribasini izchillik bilan o'rganishimiz zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan olib borilayotgan demokratik jamiyat qurish, to'laqonli faoliyat yurituvchi va xususiy mulkchilik ustuvorligiga asoslangan bozor iqtisodiyotini bunyod

¹ <https://www.unfpa.org/data/world-population-dashboard>

² <https://www.interfax.ru/business/806527>

³ <https://visasam.ru/emigration/canadausa/bednost-v-ssha.html>

etishga qaratilgan iqtisodiy siyosat, bugungi iqtisodiy rivojlanish strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Kichik tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy ahamiyatga balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir, uni quyidagilarda ifodalash mumkin:

– kichik tadbirkorlikning rivojlanishi mehnatga yaroqli aholini ish joylari bilan ta‘minlaydi;

– ishlab chiqarishda band bo‘lgan aholining moddiy manfaatdorligini o‘sb borishini ta‘minlaydi;

– kichik tadbirkorlik rivojlanishi aholi o‘sb kelayotgan ehtiyojlarini to‘la qondirishni ta‘minlaydi;

– kichik tadbirkorlik ishga yaroqli fuqarolarning layoqatini amalda to‘laroq ko‘rsatish imkonini va jamiyatda o‘rta hol mulkdorlarni shakllanishini ta‘minlaydi.

Agrosanoat majmuida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor iqtisodiyotiga mos turli mulkchilikga asoslangan tadbirkorlik sub‘ektlari shakllandi. Ayrim mulk sub‘ektlari xususiylashtirilib, xususiy–yakka, xususiy-jamoa tadbirkorlik shakllariga aylantirib borilmoqda. Agrosanoat majmuining qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida avval jamoa (shirkat) xo‘jaliklari, ularning tarkibida fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2004-2006 yil fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” gi farmoni asosida zarar ko‘rib ishlayotgan past rentabelli shirkat xo‘jaliklari (ixtisoslashgan shirkat xo‘jaliklaridan tashqari) tugatilib, fermer xo‘jaliklariga aylantirildi.

O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2019 yil 9 yanvardagi fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yerlarining meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi erlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 14-son qarori asosida fermer xujaliklarining yerlari optimallashtirilib, qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalarining o‘lchamlari ularning faoliyat ko‘rsatish sohasiga qarab quyidagicha belgilanadi:

➤ paxta va g‘allachilik qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalarining eng kam miqdori – 100 gektar;

➤ g‘alla va sabzavotchilik sohasidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalarining eng kam miqdori – 20 gektar;

➤ bog‘dorchilik va uzumchilik korxonalari yer uchastkalarining eng kam miqdori – 10 gektar;

➤ Sabzavotchilik va bog‘dorchilik korxonalari yer uchastkalarining minimal hajmi 5 gektarni tashkil etadi.

Qishloq xo‘jalik sohasida tadbirkorlik faoliyati tadbirkorning bilim tajribasidan tashqari davlat siyosati va qishloq xo‘jaligining hususiyatlari ham ta‘sir ko‘rsatadi. Shu jumladan, bu holat qishloq xo‘jaligida mulkchilik shakllanishiga asos bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi madaniy –maishiy, savdo ob‘ektlar xususiylashtirilib, xususiy tadbirkorlik sub‘ektlari sifatida faoliyat olib bordi, ishlab chiqarish infratuzilmasi ob‘ektlari MTP, MMTP, o‘g‘it bilan ta‘minlash, urug‘lik bilan ta‘minlash, yoqilg‘i moylash materiallari bilan ta‘minlash korxonalari hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ishlab chiqarish hajmi hamda tenologik jihatdan yirik bo‘lganligi sababli hissadorlik jamiyalartiga aylantirildi. Mazkur sohada faqat meva-sabzovot mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik tadbirkorlik sub‘ektlari shakllandi.

Agrosanoat majmuida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining mulkchilik shakllari tizimi

Tadbirkorlik shakllari	Tadbirkorlik sohalari	Tadbirkorlik sub'ektlari	Mulkchilik shakllari
Xususiy-yakka	Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish:	<ul style="list-style-type: none"> • fermer xo'jaliklari; • dehqon xo'jaliklari. 	Xususiy mulk
	Xizmat ko'rsatish:	<ul style="list-style-type: none"> • madaniy – maishiy xizmat ko'rsatish kichik korxonalar; • savdo korxonalar; • pullik xizmat ko'rsatish shoxobchalari. 	Xususiy mulk
	Qayta ishlash:	<ul style="list-style-type: none"> • meva – sabzavotlarni qayta ishlovchi kichik korxonalar; • yakka tartibda donni qayta ishlovchi kichik korxonalar. 	Xususiy mulk
Xususiy - korporativ	Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish:	<ul style="list-style-type: none"> • jamoa(shirkat) xo'jaliklari; • agrofimlar • klasterlar • kooperatsiyalar. 	Jamoa mulki
	Xizmat ko'rsatish:	<ul style="list-style-type: none"> • urug'lik bilan ta'minlovchi korxonalar; • o'g'it bilan ta'minlovchi korxonalar; • suvdan foydalanuvchilar uyushmasi; • yoqilg'i moylash materiallari bilan ta'minlash korxonalar. • klasterlar 	Jamoa mulki
	Qayta ishlash:	<ul style="list-style-type: none"> • donni qayta ishlovchi korxonalar; • paxta tozalash zavodlari; • qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlovchi kichik korxonalar; • agrofimlar. • klasterlar • kooperatsiyalar. 	Jamoa mulki

Agrosanoat majmui sohalaridagi turli mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik sub'ektlarining bir-biriga bog'liq holdagi faoliyati agrar munosabatlarni vujudga keltiradi.

Agrar munosabatlar bu–kishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish va qishloq xo'jaligi vositalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlardir, [10]. Agrar sohadagi barcha iqtisodiy sub'ektlarning faoliyati agratadbirkorlikning shakllanishiga olib keladi, zero agrotadbirkorlik boshqa tarmoqlardagi tadbirkorlik harakatidan farq qiladi. Chunki mazkur sohaning markazida yer munosabatlari bilan bog'liq holda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish yotadi. Bu esa agrosanoat majmuida xususiy tadbirkorlikni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini anglatadi.

Shu o'rinda qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish darajasi ko'rsatkichlarini hamda ish bilan bandlikni oshirish uchun viloyat va uning tumanlarida tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar oshirilishi zarur. Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlari va

mavjud mehnat resurslarining harakatchanligini ta'minlash, kasb-malakasini oshirish, kishilardagi mavjud tajribasini saqlab qolish muhimdir. Buning uchun bizning fikrimizcha, mehnat resurslarini ikki yo'nalishda malaka oshirish tizimini shakllantirish tadbirkorlar o'rtasida hamda qishloq mehnat bozorida mehnat resurslari o'rtasidagi raqobat, shuningdek mehnat resurslari va tadbirkorlar o'rtasida ham raqobat muhitini yaratish imkonini beradi. Ushbu holatni shakllantirish uchun kadrlarni bosqichma-bosqich malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmini joriy qilish lozim.

Quyida biz tomonimizdan qishloq xo'jaligi kichik tadbirkorlikning sohalar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimi tavsiya etiladi (3-jadval).

3-jadval

Qishloq xo'jaligida kichik tadbirkorlikning sohalar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimi

Ta'lim oluvchilar	Tadbirkorlar	Ma'lumotga ega bo'lmagan ishsizlar	Ma'lumotga ega bo'lgan ishsizlar
Ta'lim berish yo'nalishi	Malaka oshirish Tajriba almashish	Kasb –hunar o'rgatish	Yangi kasb bo'yicha yo'naltirish
Ta'lim berishning maqsadi:	-Bozor iqtisodiyotiga moslashtirish uchun yangi axborotlar bilan tanishtirish -Respublika va xorijda erishilgan ilg'or tajribalarni ommalash-tirish	Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasidan boshqa sohalariga jalb qilish va ular to'g'risida tushuncha berish. Ushbu yo'nalishda kasb - hunarga o'rgatish va yo'nalish berish	
Talimni tashkillashtiruvchi tashkilot va muassalar:	Viloyat va tuman hokimliklari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Viloyat va tuman hokimliklari, mehnat birjalari, oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kolejlari, biznes inkubatorlar.	
Tinglov va ta'lim beruvchi o'rtasidagi aloqani tashkil etish va uning muddati:	-Bevosita auditoriyalarda har ikki yilda bir oy -Onlayn o'zluksiz	-Bevosita auditoriyalarda yilning har oyida yangi tinglovchilarni qabul qilish - onlayn uzluksiz	
Ta'lim olish bosqichlari vatinglovchilarni rag'batlantirish:	Birinchi bosqich - bir oylik ta'lim, mamlakat bo'yicha tajriba almashish Ikkinchi bosqich-bir oylik ta'lim olish va tajriba almashish natijasida tadbirkorlikda yangilik yaratish sohalarni kengaytirgan tadbirkorlar xorijda tajriba almashishiga jo'natish	Birinchi bosqich , bir oylik ta'limda kasb hunar o'rganish. Ikkinchi bosqich ta'lim olgan yo'nalishi bo'yicha yangi ish ochganda tadbirkorlarni o'qitish tizimiga yo'llanma berish.	Birinchi bosqich- , bir oylik ta'limda o'zi qiziqqan sohani o'rganish. Ikkinchi bosqich ta'lim olgan yo'nalishi bo'yicha yangi ish ochganda tadbirkorlarni o'qitish tizimiga yo'llanma berish.
Ta'limni qo'llab – quvvatlash:	Viloyat va tumanlarning mahalliy budjeti, agrosanoat majmuidagi yirik korxonalarining maxsus fondlari, moliyaviy barqaror tadbirkorlik sub'ektlari hisobidan moliyalashtirish,		

Хулоса ва таклифлар

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin tadbirkorlik iqtisodiy kategoriya, bozor iqtisodiyotining muhim elementi sifatida o'rta asrlardan boshlab hozirgi kunga qadar

jamiyatda o'z o'rnini egallab kelmoqda. Tadbirkorlik kishilar harakati va mehnati orqali vujudga kelsada, u mehnat resurslaridan ajralib alohida ishbilarmon kishilar guruhini mujassamlashtirdi. Ushbu guruh kishilari tadbirkorlikning rivojlanish jarayonida ishlab chiqarishni tashkil etish, uni ishlab chiqarish resurslarini bilan ta'minlash, tavakkalchilik asosida ish yuritish, foyda olishni ta'minlash, innovatsiya yangiliklaridan foydalanish xususiyatlarni o'zlashtirdi. Ushbu jihatdan yondashadigan bo'lsak, tadbirkorlik foyda olish maqsadida innovatsiya va tavakkalchilikka asoslangan holda resurslarni birlashtirish va harakatga keltirish, boshqarish jarayonini o'z ichiga olgan ishlab chiqarish, hizmat ko'rsatish faoliyatidir. Шунингдек, Аграр соҳада

Agrosanoat majmuida ham tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o'zgartirmagan holda xususiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy bog'liqlikda rivojlanishini ta'minlaydi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish munosabatlarini yerga, qishloq xo'jaligining mavsumiyligini, tabiiy iqlim sharoitlariga va agrosanoat majmuidagi tadbirkorlik sub'ektlarining o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi.

Agrosanoat majmuida xususiy va jamoa mulki asosida xususiy yakka va xususiy jamoa tadbirkorligi shakllandi. Agrosanoat majmuida xususiy - yakka tadbirkorlik quyidagi yo'nulishlarda rivojlandi: qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaligi; xizmat ko'rsatish sohasida madaniy-maishiy, savdo, pullik xizmat yo'nalishlarida; qayta ishlash sohasida meva-sabzavot, gusht va sutni qayta ishlovchi kichik korxonalar va donni qayta ishlovchi yakka tadbirkorlik sub'ektlari rivojlandi. Xususiy-jamoa shaklida esa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi ayrim ixtisoslashgan shirkat xo'jaliklari, agrofimlar, urug'lik, yoqilg'i, ug'it, suv ta'minoti va texnik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, yirik texnologik asosga ega bo'lgan qayta ishlovchi korxonalar shakllanadi.

Tadqiqot ishida agrosanoat majmuida kichik tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishga qaratilgan quyidagi ilmiy takliflarni tavsiyalar ishlab chiqildi:

➤ Agrosanoat majmuida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish asosan ikki yo'nalishda: qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati ishlab chiqarishi ko'rinishida bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasi ularning rivojlanishiga bog'liq. Shu sababli, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va qayta ishlovchi korxonalarining moddiy bazasida infratuzilma yo'nalishlari bo'yicha kooperatsiyani tashkil etish maqsadga muvofiq.

➤ xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishni ko'paytirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika, yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan ixcham korxonalarini tashkil etish lozim.

➤ tumanlaridagi agrofimlar mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirish lozim. Bunda barcha tumanlardagi agrofimlar ish faoliyatini qayta tashkil etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini jahon bozori talablari darajasiga yetkazish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur bo'ladi.

➤ tarmoqlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf qilish hamda tarmoqlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarur. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining qishloq xo'jaligidagi faoliyati umumiy ulushini 60 foiz atrofida bo'lishini ta'minlash orqali, qolgan tarmoqlardagi kichik tadbirkorlik faoliyatini ulushini orttirib borish zarur.

➤ Agrosanoat majmuida asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sub'ektlar sifatida fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatadi. Dehqon xo'jaliklarida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishdan ko'ra, chorvachilik mahsulotlari

ishlab chiqarish salmog'i yuqori. Fermer xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallaydi, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa, faqat oilaviy sharoitda norasmiy holda rivojlanmoqda. Bu ikkala xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati bir-biriga bog'liq holda rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi va bu qayta ishlash sanoati kirib kelishini kuchaytiradi.

Ushbu faoliyat ko'lamini rivojlantirishda, birinchidan, fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni rasmiy holatga o'tkazish va yer maydonlarida yem-xashak yetishtirish imkoniyatini yaratish. Shuningdek, dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlashdan hosil bo'ladigan yem-xashak va boshqa mahsulotlarni sotish shoxobchalarini tashkil etish lozim. Ikkinchidan, dehqon xo'jaliklarini norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tkazish chora-tadbirlarini ko'rish va ularda shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asaul A. N. / Organizatsiya predprinimatelskoy deyatelnosti: uchebnik dlya vuzov. / A. N. Asaul. – 4-e izd. – SPb.: Piter, 2013. – 352 s.: il. ISBN 978-5-496-00066-6
2. Ukrainseva I. V. / Predprinimatelskaya deyatelnost i eye osobennosti v selskom khozyaystve [Elektronnyy resurs] / I. V. Ukrainseva, A. I. Avdeyeva // Nauchno-metodicheskiy elektronnyy jurnal «Konsept». – 2017. – 100–103 s. – URL: <http://e-koncept.ru/2017/770442.htm>
- 3/ Perspektivy selskogo khozyaystva v Rossii i v mire: osnovnyye napravleniya [Elektronnyy resurs] // Jurnal «Generalnyy direktor». – 02.06.2020. – URL: <https://www.gd.ru/articles/9254-qqq-17-m6-02-06-2020-perspektivy-selskogo-hozyaystva>
4. Mirovaya statistika onlayn [Elektronnyy resurs]//Worldometers.– URL:<http://www.worldmeters.info> (Data obrasheniya: 06.11.2017)
5. Tursunov Imamnazar Egamberdiyevich, Kurbanov Alisher Bobokulovich Innovatsionnye podxody razvitiya predprinimatelstva // International Journal of Innovative Technologiyes in Economy. 2018. №5 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionne-podhody-razvitiya-predprinimatelstva>
6. Kurbanov A.B., Djalilova N.M. Rol kooperatsii v formirovanii agrarnoy sobstvennosti Economics № 4 (47), 2020
7. Blagova Z.I. Predprenimatelstva v Rossiyskoy ekonomike. – Sankt-Peterburg.: Unta ekonomiki i finansov, 1995.-102 s.
8. To'xliyev N., O'lmasov A. Ishbilarmonlar lug'ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1993. - 314 b.
9. Vladimir Ruvinskiy. Pochemu малыy biznes ne rastet <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2021/05/08/>
10. Xurramov A.F., Mamatov A.A. Qishloq xo'jaligida mulkiy munosabatlar va ularni rivojlantirish yo'nalishlari. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008. – 59 b.